

TEXNOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARNING KASBIY- PEDAGOGIK MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISH

Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna

Qo'qon DU Texnologik ta'lim va kutubxonashunoslik kafedrası dotsenti

email: firdavshonyusufhujaeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kasbiy-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, raqamli vositalar, loyihalashtirish metodlari va amaliy tadbirlar orqali talabalarning pedagogik kompetensiyalarini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada uslubiy tavsiyalar, amaliy misollar va kelajak istiqbollari ham berilgan.

Kalit so'zlar: texnologik ta'lim, kasbiy-pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, raqamli vositalar, loyihalashtirish metodlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития профессионально-педагогического мастерства у студентов технологического направления. Особое внимание уделяется применению педагогических технологий, интерактивных методов обучения, цифровых инструментов и проектных подходов в образовательном процессе. Описаны практические рекомендации по организации учебной деятельности студентов, а также перспективные направления совершенствования педагогических компетенций будущих специалистов.

Ключевые слова: технологическое образование, профессионально-педагогическое мастерство, педагогические технологии, интерактивные методы, цифровые инструменты, проектные методы.

Abstract: This article explores the formation and development of professional-pedagogical competence among students majoring in technology. Special attention is given to the use of pedagogical technologies, interactive teaching methods, digital tools, and project-based approaches within the educational process. The paper provides practical recommendations for organizing students' learning activities and suggests future-oriented strategies to enhance the pedagogical skills of future specialists.

Keywords: technological education, professional-pedagogical competence, pedagogical technologies, interactive methods, digital tools, project methods.

Kirish

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni nafaqat o'z kasbiga oid chuqur bilim bilan, balki pedagogik kompetensiyaga ham ega bo'lgan holda tayyorlash zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, texnologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, kelajakda o'quvchilarga texnologik bilimlarni o'rgatadigan o'qituvchilarga aylanishini inobatga olsak, ularda kasbiy-pedagogik mahoratning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy-pedagogik mahorat o'z ichiga o'qituvchilik faoliyatini tashkil etish, o'quv jarayonini loyihalashtirish, talabalarning bilim olish faoliyatini boshqarish, baholash va rivojlantirishni oladi.

Ushbu maqola texnologiya yo‘nalishi talabalarining kasbiy-pedagogik mahoratini qanday shakllantirish mumkinligi, qanday vosita va metodlardan foydalanish kerakligi kabi masalalarga yechim taklif etadi.

Asosiy qism.

Kasbiy-pedagogik mahoratning mazmuni. Kasbiy-pedagogik mahorat - bu shaxsning o‘z kasbini puxta egallagan holda, pedagogik jarayonni samarali tashkil eta olish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: Didaktik bilim va ko‘nikmalar; Psixologik yondashuvlar; Metodik tayyorgarlik; O‘quv rejalarini tuzish, dars o‘tish uslublarini tanlash; Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Pedagogik texnologiyalarning roli. Texnologiya yo‘nalishi talabalarining kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishda interfaol o‘qitish usullari muhim o‘rin tutadi. Jumladan: “Zinama-zina”, “Claster” kabi metodlar; talabalar kichik guruhlarda pedagogik loyihalar ishlab chiqishadi; Virtual laboratoriyalar orqali dars mazmunini jonli tasvirlar bilan tushuntirish orqali pedagogik bilimlarni uyg‘unlashtirish. Bularning barchasi talabalarda darsga tayyorgarlik, materialni tushunarli yetkazish, baholash mezonlarini ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Amaliyot va stajirovkaning ahamiyati. Kasbiy-pedagogik mahoratni shakllantirishda amaliy darslar va pedagogik stajirovka muhim bosqich hisoblanadi. Amaliyot jarayonida talabalar: Real sharoitda dars o‘tish; O‘qituvchilarning tajribasini o‘rganish; Tahliliy kuzatuvlar asosida o‘zini baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Raqamli vositalardan foydalanish. Texnologik o‘qituvchilarda zamonaviy raqamli vositalarni darsga integratsiya qila olish ko‘nikmasi bo‘lishi lozim. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: Prezentatsiyalar (PowerPoint); Onlayn test tizimlari (Google); Elektron dars ishlanmalari va videodarslar. Bu vositalar darslarni jonli, interaktiv va talabalar uchun qiziqarli qiladi. Muammolar va ularni yechish yo‘llari. Asosiy muammolar: Pedagogik bilimlarning yetishmasligi; Amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya jihozlarining kamligi; Talabalarda o‘ziga ishonchsizlik, nutqiy muammolar. Tavsiyalar: O‘quv dasturlarini yangilash; Ustoz-shogird tizimini rivojlantirish; Talabalarni pedagogik faoliyatga erta jalb qilish;

Xulosa Texnologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kasbiy-pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, interfaol metodlar orqali talabalarni o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlash mumkin. Bu yo‘nalishda o‘quv rejalarini takomillashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, mentorlik tizimini rivojlantirish zarur. Zero, kuchli pedagogik tayyorgarlik -kuchli mutaxassisning garovidir.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Alimjanova G. A., Alimova F. Z. “Pedagogik mahorat va uni shakllantirish”. T.2023
2. Omonov H. T., Madyarova S. A. “Pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2022.
3. Zaripova G. K. “Interfaol usullar asosida o‘qitish metodlari”. – Sam, 2021.
4. Mariscal L. L., et al. “Pedagogical Competence Towards Technology-driven Instruction”, IJMABER, 2024.